

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari	125
A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari	129
M.B.Rajabova	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar	133
G.S.Qurbonova	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri	140
M.K.Mirzoyev	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi	145
M.A.Jo‘rayeva	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari	149
L.A.Masharipova	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları	154

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari	158
Z.Sh.Pazilova	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar	163
M.Y.Xusaynova	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi	168
M.M.Mamajanova	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish	172
N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova	
Tarjimada realiyalar masalasi	176
X.M.Maripova	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi	179
N.A.Mansurova	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari	183
M.R.Komilova	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
J.X.Djamolov	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni	192
Sh.T.Yusupova	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida	197
M.O.Batirxanova	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar”	201
G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
M.M.Nurmatova, M.O.Oripova	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

MATEMATIKA

A.K.Yusupova, B.Qurbonov	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish	209
O‘.U.Ismailov	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

FIZIKA– TEXNIKA

E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish	218

CHO'LPONNING "VAYRONALAR ORASIDA" ASARI JANR XUSUSIYATLARI

ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЧУЛПОНА «ВАЙРОНАЛАР ОРАСИДА» («МЕЖ РУИН»)

GENRE FEATURES OF CHOLPON'S WORK "VAYRONALAR ORASIDA" ("AMONG THE RUINS")

Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna¹¹Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna

– Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti(PhD)

Annotatsiya

Maqolada Cho'lponning "Vayronalar orasida" asari haqida ma'lumot beriladi. Asarning janr xususiyati hamda kompozitsiyasi tahlili yoritiladi. Safarnoma janri haqida fikr yuritiladi. Safarnoma janri qonuniyatlari nazariy jihatdan asoslanadi. Safarnoma, sayyohatnoma, yo'l ocherklari janr nuqtayi nazaridan farqlanadi. Safarnoma janridagi obraz va voqealar tahlil etiladi. Muallif nutqi va voqealarga munosabati ilmiy jihatdan asoslanadi. Safarnoma turlari muallif munosabatiga qarab farqlanadi. Safar janrining ko'rinishi va shakllari turlicha bo'ladi. Badiylikka yo'g'rilgan safar, publitsistik yo'nalishda yozilgan safar, kundalikka yozib borilgan safar, xotiraga yozib borilgan safar, xatlar asosida yozilgan safar, shakli ko'rinishi har xil, lekin maqsad, vazifa bir xilligi haqida fikr yuritiladi. Safarnoma publitsistika, badiiy yo'nalishda yozilib: maktublar, kundaliklar, ocherklar va badiiy asar qonuniyatlariga buysungan holda janrlarga bo'linadi.

Cho'lponning "Vayronalar orasida" asarida O'sh, Andijon, Jalolobodga safari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье приводится информация о произведении Чулпона «Вайроналар орасида» («Меж руин»). Освещаются жанровые особенности, а также анализируется композиция произведения. Рассуждается о жанре сафарнома (путешествие). Теоритически обосновываются закономерности жанра путевых заметок, дневник путешественника отличаются с точки зрения жанра. Анализируются образы и события в жанре сафарнома. Научно обосновывается авторская речь и отношение автора к событиям. Автор показывает различие видов сафарнома. Формы и виды жанра сафар (путешествие) бывают разными. Путешествие смешанное с художественностью, путешествие написанное в публицистическом направлении, путешествие написанное в дневнике, путешествие записанное в памятках, путешествие написанное на основе писем; несмотря на то, что у них формы разные, цель и задача одна. Сафарнома пишется в публицистическом, художественном направлениях: они подчинены законам писем, дневников, очерков и художественного произведения, и в этой связи разделяются на жанры.

В произведении Чулпона «Вайроналар орасида» («Меж руин») рассуждается о путешествии в Ош, Андижан, Джалалабад.

Absract

The article provides information about the work of Chulpon "Vaironalar orasida" ("Between the ruins"). Genre features are highlighted, and the composition of the work is analyzed. Also discusses the genre of safarnoma (journey). Regularities of the safarnoma genre are justified travel notes, traveler's diary differ in terms of genre. Images and events in the safarnoma genre. The author's speech and the author's attitude to events are scientifically substantiated. Safarnoma differs according to the attitude of the author. The forms and types of the safar (journey) genre are different. Mixed with artistic features, a journey written in a publicistic direction, a journey written in a diary, a journey written in memoirs, a journey written on the basis of letters; despite the fact that they have different forms, the goal and task are the same. Safarnoma is written in a journalistic, artistic direction: they are subject to the laws of letters, diaries, essays and works of art, and in this regard are divided into genres. In the work of Chulpon "Vaironalar orasida" ("Between the ruins"), he talks about a trip to Osh, Andijan, Jalalabad.

Kalit so'zlar: Sayyoh, safar, obraz, muallif, safarnoma, til xususiyatlari.

Ключевые слова: путешественник, путешествие, образ, автор, сафарнома, языковые особенности.

Key words: traveler, journey, image, author, safarnoma, linguistic features.

KIRISH

XX asr ijodkorlari badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilib, yetuk badiiy namunalarni yaratdilar. O'zbek adabiyotida safarnoma janrining shakllanishi va rivojlanishida mumtoz adabiyotining o'zni beqiyos. Mumtoz adabiyot tarixida safar tafsilotlarining bayon qiluvchi asarlarning ildizi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Biroq safarnoma bilan sayyohatnomani farqlab olish darkor. Bizning fikrimizcha, shu paytgacha o'zbek adabiyotida bu ikkita janr sinonim sifatida qo'llangan. O'zbek tilining izohli lug'atining uchinchi jildida shunday ta'rif berilgan. "Sayohat (arabcha so'z bo'lib,

safar, sayr qilish; turizm). Dam olish, hordiq chiqarish, dunyoni ko'rish maqsadida qilingan safar. [1.420]

Sayohatnoma. Sayohat taassurotlari va tafsilotlarini tasvirlovchi badiiy asar; adabiy janr.[1.420- bet]

Safar(arabcha – sayohat, sayr; biror joyga borish; marta, gal) Xizmat yo'li bilan yoki sayohat qilish, uchrashish maqsadida biror yerga borish; yo'l". [1.460]

Adabiyotlar tahlili va metodlari

XIX asr so'nggi choragi va XX asr boshlarida Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori kabi shoir va adiblar badiiy publitsistik xarakterdagi safarnomalarning dastlabki namunalarini yaratgan bo'lsalar, 1920-yillarga kelib Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon jodida bu yo'nalish imkoniyatlari biroz kengaygan holda o'ziga xos o'rin egallab, mazmun va kompozitsion jihatdan takomiliga yetdi.

Jumladan, Cho'lpon ijodiga nazar soladigan bo'lsak, uning she'riyat va nasr bilan bir qatorda badiiy publitsistikada ham jiddiy qalam tebratganiga guvoh bo'lamiz. Bunga misol tariqasida uning "O'sh", "Qaytish yo'q", "Yo'l esdaligi", "Arslonbob yo'lidan", "Vayronalar orasidan: Andijon-O'sh-Jalolobod", "Chimkent xatlari", "Shahardan qishloqqa", "Osmonda, yerda" kabi yo'l esdaligi va safarnoma tipidagi asarlarni keltirishimiz mumkin.

Natijalar

XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega ijodkor Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir. Jadid adabiyotida o'z o'rni o'z uslubiga ega bo'lgan ijodkor barcha janrlarda ijod qilgan. She'rlar, hikoyalar, romanlar yozgan ijodkor safarnoma janrida ham asarlar yozgan. "Yo'l ocherklari" hamda "Vayronalar orasida" asarlari safarnoma janrida yozilgan. Safarnoma janrining asosiy tamoyillariga maqsadning aniqligi, makon va zamon, ijodkor g'oyasining badiiy funksiyasi kiradi. Safarnomaning strukturasi ijodkor uslubiga bog'liq. Safarnoma erkin qurilishga ega bo'lgan janr, shuning uchun bu janrda ijodkor asar strukturasi ma'lum qolipga solishi shart emas.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov "Sattrlar orasida yurt tashvishi" nomli maqolasida shunday fikr yuritadi: "Ma'rifatchilik adabiyotida - xoh VXIII asr Yevropa adabiyotini va xoh Rusiya ma'rifatchilarini olib ko'ring – safarnomalar ancha keng o'rin tutadi. Tabiiyki, o'zbek ma'rifatchilik adabiyoti ham istisno emas: Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Fitrat ijodiy meroslarida bu janrning turli ko'rinishlariga duch kelishimiz ham shunga dalolat qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yo'l ocherklari – safarnomalarning milliy adabiyotlarda keng tarqalishi konkret millat ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yetilayotgan paytlarga to'g'ri kelar ekan. Zero, realistik safarnoma mavjud hayotdagi faktlarga o'quvchini diqqatini jalb etib, ular asosida mushohada yuritishga undaydi; bu xilda yashab bo'lmasligiga ishonitirishu jamiyatning isloh qilish zaruratini anglatishga keng imkoniyatlar beradi. Ma'rifatchilik g'oyalari ta'sirida adabiyotga kirib kelgan Cho'lpon janrning mazkur imkoniyatlaridan birmuncha o'zgargan sharoitda ham mohirona foydalana bilgan edi"[2].

Ko'rinadiki, olim Cho'lponing "Vayronalar orasida" asari haqida safar janrida yozilgan asar ekanligini ta'kidladi. O'zbek adabiyotida safarnoma janri alohida janr sifatida tadqiq etilmagan. Sayohatnomalar, yo'l esdaliklari, yo'l ocherklari tarzida berilgan. Lekin jadid adabiyoti namoyandalari tomonidan yozilgan bu kabi asarlar safarnoma janriga to'liq javob beradi. Makon va zamon aniq bo'ladi va inson maqsad bilan safarga chiqadi.

"Vayronalar orasida"ning kompozitsion qurilishi, bir tomondan, safarnoma janri talabi bilan, ikkinchi tomondan, undagi tahliliy qatlamning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Safarnoma janri talabidan kelib chiqqan holda makon va zamon o'zgarishlarining qat'iy tartibi saqlangan. Biroq bu yo'llardan ilgari ham ko'p bor yurgan sayyoh mushohadasi hozirgi mavjud faktlar bilangina qanoatlanmaydi: u o'zi bilan o'tmishga bot-bot qaytadi, chog'ishtirishga intiladi. (Adib safar bilan birga xotiraga yuzlanadi. Demak, safarnoma janrida yozilgan asarlarda xotira janri ham uchraydi. Ta'kid bizniki.M.J.). Yurt qayg'usida yashayotgan adib tafakkuri vaqt chegaralarini buzib yuboradi. Muallif biron fakti keltirar ekan, albatta uning o'tmishini eslaydi, muqoyasa qiladi, uning o'ylari qatida esa doimo kelajak tashvishi botin bo'ladi. (Kelajakka umid, ishonch)

Safar janrining ko'rinishi va shakllari turlicha bo'ladi. Badiylikka yo'g'rilgan safar, publitsistik yo'nalishda yozilgan safar, kundalikka yozib borilgan safar, xotiraga yozib borilgan safar, xatlar asosida yozilgan safar, shakli ko'rinishi har xil, lekin maqsad, vazifa bir xil. Cho'lponing "Vayronalar orasida" asari aniq faktlarga asoslangan va o'tmish xotiralari bilan qiyoslab yozilgan safarnomadir.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Asar Andijon-O'sh-Jalolobod safari taassurotlari asosida yuzaga kelgan. Muallifning uyqudan uyg'otilib, aravaga chiqishi, onasini chiroq ko'tarib, ancha yergacha kuzatib qo'yishi, muallifning onasi haqidagi iliq fikrlari safarnomaning kirish qismi hisoblanadi. Kuzatuvlarimiz shuni anglatadiki, safarnoma janrida albatta kirish qismi bo'ladi. Demak safarnomada kirish qism berilishi janrning muhim xususiyatidir. Kirish qismidan so'ng muallif o'z kuzatishlarini bayon qiladi. Muallif taassurotlarini esa asarning xotima qismida bayon qiladi.

“Shaharning cheka joylariga yaqinlashamiz...“Paxtaqo'm”ning birinchi zavodining ket tomonidan o'tib boramiz. Eng yorug' elektrik chiroqlarning o'tkir yoruqlari orasidan guvillagan tovush keladur. Bu – zovud parralarining aylanishidan chiqqan tovush. Chiroq ziyolari orasidan qorayib ko'rungan ko'k onamiz yerning qora bag'riga o'xshaydur, qora bag'irliq yerni o'ylag'andan keyin xayol ko'zlari oldida keng bir paxta talasi ochiladur, keng paxta talasida mahsharda to'plang'an sallalik musulmonlardek oq boshlari bilan bir mahshar holini olg'an paxta daraxtlari – g'o'za poyalari haqiqatan odam bolalari uchun haqiqiy mahshar manzarasini kelturalar! Paxta mahshari bilan paxta zovudining guvillagan tovushi... ot bilan suv, o'lim bilan hayot ohanglari kabi bir ohang (Garmoniya) vujudga kelturadur...”[3. 33-bet] Cho'lpon musiqa ilmidan ham xabardorligi parchada o'z asosini topgan. Zavod haqidagi fikrlarini paxta dalasi bilan bog'laydi. O'xshatishni nasrdagi eng go'zal namunasi keltiradi. Teri zavodlari borligi, bu zavodlar xarob bo'lib yopilib ketganligi, bitta teri zavodi haminqadar ishlab turganini ham aytib o'tadi. Arava yo'li nihoyatda og'irligi, aravalarning loyga botishi, aravakashlarning azobli holatlar, Andijon shahriga kirib kelganini ham bayon etadi.

“Adirdan tushib Xartum qishlog'iga kirib boramiz. Chekarak joylardag'i imoratlar, havlilar buzulg'an, bo'sh vayron ko'rundilar. Ilgari juda obod bo'lg'an guzardan qorovul taqtasining mayus-mayus tovushi eshitildi. Yomon, loy yo'llari bilan Zavraq qishlog'ig'a o'tdik, undan Chek qishlog'ig'a yetib, katta adirg'a chirmasha boshladik. Qishloqlarda qimirlag'an jon yo'q, hamma uyquda, hamma xonada jon bor, odam bordek ko'runadur”[3. 34-bet]. Muallif kuzatish bilan birga aravakashlardan bu haqida, so'rab vayronalarda inson yo'qligini bilib oladi. Qishloqni ta'riflayotganda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanadi. Tom ustiga bosilgan makka va g'o'zapoyalarni alvasti to'dasi va devlarni boshiga o'xshatadi (ertaklar bn bog'liq M.J), xayolida har xil shakllar yaratadi. O'z tasavvurlariga ergashib, To'rabuloqqa yetib kelgani, bu yer esa qo'rboshilar maskani ekanligi, yuragiga g'ulg'ula tushganligini ta'kidlaydi. Demak, To'rabuloq atrofida yashovchi qishloqdagilar qo'rboshilardan qochib, manzilni o'zgartirgan. Biroq adib asarda buni ochiq-oydin bayon qilmaydi, aksincha, yuragiga g'ul-g'ula tushganini ta'kidlaydi. Yuqoridagi dev boshi, alvasti to'dasi kabi atamalarni qo'llashi ham qo'rboshilar manziliga bog'liq. Boshqa aravalardan esa “Gulyor”, “Maxzumjon”, “Uzmagul”, “Omonyor” kabi qo'shiqlarni eshitishi, ularni noma-nom sanashidan muallif xalq og'zaki ijodi, laparlarni yaxshi bilgan.

Cho'lpon xalq og'zaki ijodi, miflar, adabiyot, geografiya, botanika fanlarini yaxshi bilgan va siyosatdan xabardor shaxs bo'lgan. “Yo'lda bir qishloq ko'rdik: yarmidan ko'pi kuyib ketibdur. Sababini aravakashlardan so'radim. “Bosmachilar bilan urushdan chiqqan armanilar, 3-4 yil bo'ldi, talab o't qo'yib yubordilar”, - dedi...

Armanilarning “milliy dashnoq” firqalari sho'ro hukumati yosh vaqtda qizil bayroq safiga kirib olib, ularning qilg'an vahshatlari, 18-19-yillarda Farg'onadagi “arman diktaturasi” ko'z oldimdan bitta-bitta chizilib o'tdi”[3. 35-bet]. Safarida ko'rgan har bir haroba haqida ma'lumot olib, uni tarix yoki siyosat bilan bog'lab izoh berib o'tgan. Shahrixondagi ko'p pul sarf qilinib qurilgan temir ko'prik, vaqt o'tib uni buzilganligi haqida ma'lumot beradi. Ko'prikni tezroq tuzatish chorasini ko'rish kerakligini, tuzatish esa kimlarning vazifasi ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. Ko'rinadiki, Cho'lpon jurnalist sifatida xalq dardi bilan hamoxang yashash bilan birga hokimiyat va uning atrofidagi amaldorlarni ham yaxshi bilgan. Shuning uchun ham uning har bir fikri asosli va izoh talab etilmaydigan muammolardir.

Ho'jabod qishlog'i u yerdagi insonlarni kuzatar ekan, muallif o'zining muxbir ekanligini “gazetachi” so'zi orqali izohlaydi. O'tmish va hozirni qiyoslaydi. O'sh soyi toshib Shahrixon va Xo'jabod qishlog'idagi dehqonlar hosiliga zarar qilganligi, bu haqida “Darhon”, “Farg'ona” gazetalarida maqola yozilganligi, lekin shu paytgacha hech qanday chora ko'rilmaganligi yozadi. Xalqning, ayniqsa dehqonlarni qiynagan muammoni ko'tarib chiqib, lekin ularni dardiga malham bo'la olmaganidan muallif kuyinib gapiradi. Asarda inson hayotiga doir barcha harakatlar va voqealarning makon-zamon olami bilan mustahkam bog'langanli aks etgan. Makon va zamon hamohangligi, inson

taqdiri, oddiy xalq, dehqonlar mehnati, o'tmish va kelajak masalalari shoirning qalb iztirobiga aylangan.

“Ul bog‘ mundan 10-12 yillar burun Farg‘onaning mashhur qorunlaridan yahudiy Simhoyevlar tomonidan qilingan edi. Bog‘ning yerlarini dehqonlardan arzon-arzon olib berishga o‘zimizning ahmoq to‘ralarimizdan biri ko‘b katta xizmat qilg‘an edi. Hatto bu to‘raning harakati bilan suv kelmas yerlarga suv keldi, ya‘ni yuqoridagi qishloqlarda o‘lturg‘an dehqonlar o‘z suvlaridan kesib, to‘ramning bog‘iga berdilar. Dehqonlarning ko‘blari to‘raning muridi bo‘lganligi uchun to‘ra ul ishni juda oson bajardi. “Oq qildim”, “Qora qildim!” – deydi, bo‘ldi, bas”[3. 38-bet].

Adib o‘tmishdagi folklor an‘analariga tayanib qolgan xalqning soddaligi, ishonuvchanligi, bir kaltafahm to‘raning muridi bo‘lib, bor yo‘g‘idan ayrilganligi, keyinchalik shu to‘ra ham boqqa haddi sig‘masligi haqida yozadi.

O‘sh tabiati, go‘zal manzarasini ta‘riflarkan, Boburning “Boburnoma”, “Qashqar amiri Yaqub” nomli fransuz asaridan parcha keltiradi. O‘zbek-turk, fransuz olimlari aytgan fikrga boshqa fikr qo‘shmasligini “O‘sh – chinakam maqtalishga arziyurg‘an joy” ekanligini ta‘kidlaydi. O‘sh shahrini ta‘riflab, uni maqtovini oshirgan muallif xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanadi. Har bir fikrni maqol va matallar bilan boyitadi. Ko‘rinadiki, adib xalq og‘zaki ijodi hamda g‘arb va sharq adabiyoti namoyondalari asarlarini yaxshi bilgan. Safarnomani asosli tarzda boyitib borgan. O‘sh tog‘idagi o‘t-o‘lanlar, maysalar ham muallif nigohidan chetda qolmaydi. Har biriga ta‘rifi tavsif beradi. Tog‘ning tepasidagi o‘simliklarga bog‘langan latta-puttalarga ham izoh beradi. Xalqning irim-sirimlarga ishonishi, toqqa borib, shu maysalarga latta boylab dard va iztiroblari, tilaklarini aytishiga ham ishora qiladi.

“Bechora o‘zbek xotuni!

Senga 12 yoshingda kafan kiygizgan janoblar tug‘ilg‘an kuningdayoq seni irimlarning bema‘ni quchoqlarig‘a irg‘itadurlar. Bilmaysen. Bilmaysen. Bilmaganing uchun sen hali ko‘b yillar shu irimlar uchun eng toza umidlaringni so‘ldirgaysen!

Sening bilmog‘ing, o‘rganmaging uchun keng yo‘l ochilg‘an shu zamonda senga ochulg‘usi maktablarning ta‘minoti uchun mahalliy mablag‘ ko‘payishini tilaylik!...”[3. 43-bet]

Adib fikrlarini o‘lda-jo‘lda emas, aniq maqsadlar va tartib asosida bayon etadi. Irim-sirimlar haqida gapirib turib, uni ayollar, xotin-qizlar taqdiriga bog‘laydi. O‘qimasdan avliyo va folbinlar ta‘siri ostida qolib, atrof-muhit, tabiat go‘zalligini ham ko‘ra olmayotgan, o‘z hayotini esa barbod qilayotgan, kelajakdan umidini uzgan, hayot faqat alvasti, ajina, folbin va bashoratchilardan iborat deb bilgan xotin-qizlar taqdiriga achinib qaraydi. Ularni o‘qishga, farzand tarbiyasi uchun, o‘z hayoti uchun o‘qish kerak ekanligiga ishora qiladi. Shunday ayollar taqdiri, qismatini o‘z hikoya va romanlarida bayon qiladi. “Qor qo‘ynida lola”, “Kecha va kunduz” kabi asarlaridagi ayollar safarida ko‘rgan xotin-qizlar taqdiri prototip vazifasini bajarganligi safarnoma va yo‘l ocherklarida aks etgan. (ta‘kid M.J).

Muallif safarnomada yana ko‘proq e‘tibor bergani ta‘lim-tarbiya masalasidir. “O‘shda birgina maktab bor. Binosi juda yaxshi, burun rus-yerlik maktabi bo‘lg‘an. U ham biz borg‘anda remont qilinmag‘an edi. Remont uchun baladiyada pul yo‘q, muallimlarning ta‘minoti uchun maorif sho‘basida pul yo‘q, maorif sho‘basiga bermak uchun Maorif kamisarliligida pul yo‘q. Shunday qilib, shu birgina maktabning ham taqdiri qaltirab turadur. Xalq ta‘minotiga o‘tkazganlar, xalqdan pul yig‘ish qiyin...

Biz shahar bog‘chasida, eng go‘zal bir joyda o‘lturub edik, “gazetachilar kelibdur” deb xabar eshitkan bir kishi yonimizg‘a keldi. Yarim soat jon kuydirib kab-katta odam yig‘lagudek bo‘lub bir joyg‘a 2 marotaba soliq chiqqanlig‘ini, shikoyatlaridan foyda bo‘lmag‘anlig‘ini onglatdi. Sho‘ro matbuoti o‘z asosini xiyla mahkamlab olg‘an ekan, muni biz o‘sha yerda ochiq bildik”. [3.43-bet]

Cho‘lpon bir qancha qishloqlarni ko‘rganligi, ulardagi maktablarga alohida e‘tibor berishi, xalqning ilmsizligidan kuyinib yozishi safarnomaning birinchi maqsadiga chiqadi. O‘sh atrofida yashaguvchi qirg‘iz xalqining maktab va ilmga intilishi, xalq o‘z harakati bilan maktab ochganligini, xalq o‘zi pul to‘plab, maktabning 6 oylik ta‘minotini tashkillaganiga alohida urg‘u beradi. O‘zganda ham maktab ochilganligi, lekin O‘sh shahridagi tayyor maktab qarovsiz holga kelganligi haqida kuyinib yozadi. Muallif asosan O‘sh shahrida xotin-qizlar ilmsizligi, ta‘lim va tarbiya masalasi, gullayotgan va qarovsiz qolgan maktablar taqdiriga, O‘shdagi birgina kinoteatrni Jalolobodga ko‘chirilganiga ham o‘z e‘tiborini qaratadi.

Munozaralar

O'sh safarini yakunlagan sayyoh Jalolobod tomonga yo'l oladi. "O'shdan jo'nadik. O'sh bilan Qorasuv o'rtasidagi yo'l nima uchundir O'sh-Andijon yo'lidan ham bo'sh, qatnovsiz ko'rundi. Bo'lmasa, O'sh shahrini temir yo'lg'a tutashdiradurg'an ham tekis, ham yaqin bo'lg'an bu yo'l qatnov, obod, karvonlar uzilmayturg'an bo'lishi lozim edi. Bu hol O'shning har bir jihatdan ilgarigi mavqeini yo'qota boshlag'anini ko'rsatadur...

Mozorlar, shayxlar, "ulug'lar" maskani bo'lg'an chiroyli O'sh shahri ustiga kundosh kelib qolgan yosh juvondek bir chekkada mahzun-mahzun qolib ketdi..."[3. 45-bet]

Ko'rinadiki, muallif ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga o'z munosabatini bildiradi. O'xshatish-tashbeh san'atidan ham mohirona foydalanadi. O'z mavqeini yo'qotgan shahar va uning aholisiga achinadi. "Millatning tarixiy taqdirini belgilovchi davrlarning har kuni asrlarga tatigulikdirki, vijdonli kishilarning bunday paytda shiddatli hayot oqimidan chetda turishlari aslo mumkin bo'lmagan hodisa. Bu narsa, ayniqsa, ijod ahliga tegishlidir. Bunday davrlarda yashagan ijodkorlar uchun shaxsiylik va ijtimoiylik chegaralari mavjud emasdek, ularning qalbi jamiyat hayotiga hamohang urayotgandek. Cho'lpon ham ayni shu xil ijodkorlardan edi: u esini tanibdiki, o'zini ijtimoiy hayotning dolg'ali to'lqinlariga otdi, uning qozonida obdon qaynadi. Yosh millatparvarning ijtimoiy hayotni isloh qilish yo'lidagi sa'y-harakatlari, avvalo, uning o'zini o'zgartirdi: fikr-tuyg'ularini charxladi, olamu odam haqidagi tasavvurlarini boyitdi, dunyoqarashida sezilarli burilishlar yasadi"[4. 23-bet].

Jalolobod qishlog'i yoki shaharchaning kun chiqish biqinida baland adirlar borligi, shu adirlar etagida buloqlar chor hukumatning diqqatini tortganligi, o'sha yerda 10 xonalik hammom qurilganligi ham muallifni nazaridan chetda qolmaydi. Bu yer dam olish maskaniga aylanganini ta'kidlab, 1914-yilda rus muxbirining maqolasini eslaydi. Maqolada aytilishicha, Kavkaz va Qrim sanatoriyalari Germaniya sanatoriyasi darajasida emasligi, shuning uchun ruslar dam olish uchun Germaniyaga ketayotganligi, rus xalqining ko'p miqdordagi puli Germaniyaga ketayotganligi haqida bo'ladi. Oradan 10 yil o'tib, Cho'lpon Jalolobodga sayohati paytida bu maqolani eslashi, o'sha davrdagi rus xalqining ijtimoiy hayot tarzini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tabiat manzarasi go'zal bo'lgan maskanda o'zbek xalqi dam olishga qodir emasligiga ishora qiladi.

O'sh va Qorasuv o'rtasidagi Qashqar qishlog'i, uning tarixi, tabiati, "Ot zovudi" haqida fikr yuritib, 1919-yilda Farg'ona bosmachilarining sardori Muhammadaminbek rus askarlari bilan birga O'sh shahriga hujumi haqida ham to'xtaladi. O'sha davr siyosati tufayli muallif Muhammadaminbek shaxsini salbiy shaxs sifatida ko'rsatilgan. Vaholanki, Cho'lpon Muhammadaminbekni yaxshi inson, xalqning erki uchun, milliy ozodlik kurashchisi ekanligini yaxshi bilgan.

XULOSA

Cho'lponni maqsadi aniq bo'lgan. Sayohatga chiqqan sayyoh bu jihatlarga e'tibor bermaydi. Lekin safarga maxsus topshiriq bilan chiqqan sayyoh safarni iker-chikirlarigacha bayon qiladi. Bu esa safar janrining muhim xususiyatidir. Ijtimoiy hayot, urf-odatlar, e'tiqodlar va qadriyatlar, geografik tavsif, yo'l xotiralari sifatida ham ahamiyatlidir. Muallifning shaxsiy kuzatishlari, kechinmalari birinchi o'ringa chiqadi va asarning ma'lum ma'noda badiiyligini ta'minlaydi.

Tasvir va tavsif etilgan yerlar, shahar va qishloqlar, xalqlar o'tmishi, nihoyatda xilma-xil ma'lumotlarning ko'pligi, geografiya, etnografiya, madaniyat, iqtisodiyot, toponimika, antropologiya, bayonning soddaligi, haqqoniyligi va hujjatlarga asoslanganligi jihatidan Cho'lponning "Vayronalar orasida" asari o'zbek adabiyotida safarnoma janrining namunasi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2007- yil, 3- jild.
2. Quronov D. "Satrlar orasida yurt tashvishi". Maqola. Sharq yulduzi jurnali.2022-yil, 1-son.
3. Abdulhamid Cho'lpon. Safarnoma va yo'ldagi bitiklar. Toshkent. "Akademnashr" 2022-yil, 38-bet
4. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. Toshkent. "Sharq"nashr. 2004 yil. 23-bet.